

# “Seysmologiya muammolari” jurnali nashr etila boshlandi

“Seysmologiya muammolari” O‘zbekiston jurnalining ta‘sis etuvchisi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Matbuot va axborot agentligida 2019-yil 8-aprelda 1013 raqami bilan ro‘yxatdan o‘tgan (ISSN 2181-9866).

Jurnalda seysmologiyaga aloqador geofizikaning barcha yo‘nalishlarida: seysmik xavfni baholash va seysmik rayonlashtirish, zilzilalarni oldindan prognozlash, texnogen seysmiklik, seysmotektonika va geodinamika, muxandislik seysmologiyasi, seysmik monitoring va ularga tegishli geografik axborot tizimlari bo‘yicha tayyorlangan ilmiy maqolalar nashr etiladi.

Nashr tili. O‘zbek, Rus va Ingliz tillari.